

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RAIMOV XURSHID MUXTOROVICH**

**NOBANK KREDIT TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY  
XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Raimov Xurshid Muxtorovich**

Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini takomillashtirish .....

**Раимов Хуршид Мухтарович**

Совершенствование финансового обслуживания небанковских кредитных  
организаций.....

**Raimov Khurshid Mukhtarovich**

Improvement of financial services of non-bank credit organizations .....

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RAIMOV XURSHID MUXTOROVICH**

**NOBANK KREDIT TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY  
XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025 yil**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3778-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rustamov Maqsud Suvonqulovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy oponentlar:**

**Xaydarov Nizamiddin Xamrayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Berdiyorev Buxriddin Tavasharevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent shahri filiali**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «29» 08 soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahar, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: ilmiykengash@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1730 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahar, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34, kutubxona@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «29» 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil «29» 08 dagi 51 raqamli reestr bayonnomasi).



**T.Z. Teshabayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**J.X. Ataniyazov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**LN. Qo'ziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va asoslanishi.** Jahonda davlatlar makroiqtisodiy muvozatini hamda shu bilan birga iqtisodiy o‘shni ta’minlashda kredit tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, nobank kredit tashkilotlari mamlakat bank tizimiga xos bo‘lgan qator moliya-kredit xizmatlarini taklif qilib, banklar zimmasiga yuklatilgan mas’uliyatli vazifalarni bir qismini bajarish orqali banklarga raqobatchiga aylandi. Xususan, nobank kredit tashkilotlari iqtisodiyotdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni banklar uchun iqtisodiy jihatdan samarasiz va hajmi jihatidan kichik bo‘lgan riskli aktivlarga joylashtiradi. Natijada shu yo‘l bilan aholining kambag‘allik darajasini pasaytirishga moliyaviy ko‘mak beradi. “2023-yilda nobank kredit tashkilotlari sektoriga tegishli jami jahon moliyaviy aktivlarining nisbiy ulushi 49,8 foizdan 47,2 foizgacha kamaydi. Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida esa bu ulush biroz oshdi. “World council of credit unions (Butun jahon kredit tashkilotlari konsulligi) mutaxassislari hisob-kitoblariga ko‘ra ayrim mamlakatlar aholisini qashshoqlikdan qutqarish maqsadida 5,4 mln. AQSh dollar miqdorida grant mablag‘lari jalb qilingan”<sup>1</sup>. Mikromoliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabning tobora kuchayib borishi nobank kredit tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish zarurligidan dalolat beradi.

Jahon amaliyotida nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini kengaytirish hamda rivojlangan davlatlarda orttirilgan boy tajribalarni rivojlanayotgan davlatlar faoliyatida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatlar o‘rtasida iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarning o‘zgarishi va globallashuv jarayoni ortib borayotgan bir sharoitda, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda nobank kredit tashkilotlari faoliyatini kengaytirish, mikromoliyaviy xizmatlarni jumladan mikrokreditlar, mikroqarzlarni, mikroqarzlarni, faktoring, ipotekani qayta moliyalashtirish xizmatlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda mikromoliyalashtirish tizimida mikrokredit tashkilotlari va lombardlar mijozlarga xizmat ko‘rsatishning an’anaviy usullaridan foydalanish jarayonlari hanuzgacha davom etayotganligi hamda ushbu jarayon ko‘p bosqichlardan iboratligi natijasida tizimni zamonaviy talablar darajasida rivojlantirish bilan bog‘liq noqulayliklar kuzatilmoqda. Mikromoliyalashtirishning rivojlanishi aholining ish bilan bandligini ta’minlash va turmush farovonligini oshirishga sharoit yaratadi. Ma’lumki, nobank kredit tashkilotlari, eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi, jumladan, ma’lum shartlarda mikrokredit va mikroqarz beruvchi tashkilotlar hisoblanadi. Respublikada “nobank kredit tashkilotlari, shu jumladan mikromoliyalashtirish institutlarining etarli darajada rivojlanmaganligi. Buning oqibatida faoliyatini endi boshlayotgan tadbirkorlar qatlamini qamrab oladigan, ularning bosqichma-bosqich bank kreditlarini jalb qila oladigan to‘laqonli biznes darajasigacha «o‘shiga» imkon yaratuvchi samarali mexanizmlar yaratilmagan.

---

<sup>1</sup> Ferreira M. Non-Bank Financing of European Non-Financial Firms [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)

Umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari ulushini joriy 0,35 foizdan 2025-yilga kelib 4 foizgacha oshirish<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilab berilgan. Shuning bilan bir qatorda nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini ko'rsatish borasida ilg'or xorij tajribalarini sohaga qo'llash bilan bog'liq o'z echimini kutayotgan muammolar mavjudligi hamda nobank kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlari bilan bog'liq muammolarni ilmiy asosda o'rganish va tahlil qilish, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4400-son "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi hamda 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Nobank kredit tashkilotlari moliyaviy xizmatlarining huquqiy asoslarini yaratish va metodologiyasini takomillashtirish masalalari bo'yicha tadqiqot ishlari ko'plab etakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan. Xorijiy olimlardan, O.Lavrushin, G.Korobova, A.Sheremet, G.Sherbakova, M.Bor, V.Pyatnenko<sup>3</sup> va boshqalarni keltirib o'tish mumkin.

Mamlakatimiz olimlari va mutaxassislari tomonidan nobank kredit tashkilotlarining faoliyatini turli jihatlarini o'rganilgan va o'rganish natijalari ularning asarlarida o'z aksini topgan. Bular sifatida Y.Abdullayev, T.Karaliyev, Sh.Toshmurodov, S.Abdullayeva, Sh.Abdullayeva, A.Omonov, N.Ernazarov, N.Sharipova, M.Nazarova<sup>4</sup> va boshqalarni ta'kidlab o'tish mumkin.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmon. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.

<sup>3</sup> Банковское дело: Учебник. перераб. и доп./ Под ред. О.И. Лаврушина. -М.: КНОРУС, 2008. - 768 с., Банковское дело: Учебник/ под. ред. д.э.н. проф. Г.Г.Коробовой. - М.: Экономистъ, 2004. - 751 с., Финансовый анализ в коммерческом банке/ А.Д.Шерemet, Г.Н.Щербакова. - М.: Финансы и статистика, 2000. –256 с., Фраст Стивен М. Настольная книга банковского аналитика. Днепропетровск. Баланс Бизнес Букс, 2006. - 672 с., Бор М.З., Пятненко В.В. Стратегическое управление банковской деятельностью. - М.: Финансы и статистика, 1995. -158 С.

<sup>4</sup> Абдуллаев Ё., Қоралиев Т., Тошмуродов Ш., Абдуллаева С. Банк иши. Ўқув қўлланма. – Т.: IQTISOD-MOLIYA II, 2019 й. – 548 бет., Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. – Т.: Молия, 2002. – 304 б., Омонов А., Эрнazarov Н., Шарипова Н. Нобанк кредит ташкилотларда бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. –

Ammo ular tomonidan nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini takomillashtirish uning xususiyatlari, mamlakatimizdagi holati va rivojlantirish masalalari alohida tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan va tahlil etilmagan, ushbu faoliyatni rivojlantirish bo'yicha izlanishlar amalga oshirilmagan, mazkur faoliyat bilan bog'liq chet el tajribalari atroflicha o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha nazariy hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

nobank kredit tashkilotlari faoliyatining mohiyatini ochib berish va zarurligini asoslash;

nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini tasniflash (klassifikatsiyalash);

rivojlangan dunyo mamlakatlarida nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini amalga oshirishning ilg'or tajribalarini O'zbekiston amaliyotida qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini amaldagi holatini tahlil qilish;

nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarining hozirgi holatini, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ro'lini hamda rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni aniqlash;

nobank kredit tashkilotlarining potensialidan qay darajada foydalanilayotganligini tahlil qilish;

nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini takomillashtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti.** Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti.** Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini ko'rsatish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, abstraksiyalash, empirik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash ilmiy prognozlash, iqtisodiy-statistik, grafik-tahlil va usullaridan foydalaniladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mikromoliya tashkiloti tomonidan mavjud bo'lgan har bir mijoz talabini o'zgarishini tahlili asosida, mijozlarning talabini 0,3 foizga oshirish maqsadida individual guruhlariga bo'lish asoslangan;

bank xizmatlari qamrovini 2 foizga kengaytirish orqali mijozlar sonini 3 foizga

ortishi qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi qatlamlari uchun kompleks moliyaviy xizmatlar paketini joriy etish taklifi asoslangan;

mikromoliya tashkiloti o'z faoliyatini kengaytirishi va daromadini yiliga 4 foizdan ko'proqqa oshirish maqsadida o'ziga xizmat ko'rsatayotgan tijorat banki bilan shartnoma asosida uning to'lov agenti vazifasini bajarishni yo'lga qo'yish taklif etilgan;

banklar tomonidan mikromoliya tashkilotlariga kredit ajratishda, ularning ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlari bo'yicha talab qilib olish huquqini garovga olish orqali kredit foizni 0,3 foizgacha pasaytirish asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bank xizmatlari qamrovini kengaytirish orqali iqtisodiyotda norasmiy band bo'lgan qatlamlar uchun kompleks moliyaviy xizmatlar paketini joriy etish isbotlandi;

nobank kredit tashkilotlari faoliyati ARDL (1,1) optimal modeli va ARIMA (1,1,0) modeliga asosan 2030-yilga borib nobank kredit tashkilotlari kredit hajmi 3578,411 mlrd so'mga etishi buning natijasida taqsimlanmagan foyda 861,6 mlrd so'mdan ortishi prognozi ishlab chiqildi;

nobank kredit tashkilotlarining ilg'or xorijiy davlatlardagi faoliyati chuqur tahlil etilib undan xulosalar shakllantirildi;

mikromoliya tashkiloti kichik tadbirkorlik subyektlarini davlat maqsadli dasturlari orqali rivojlantirish strategiyasida innovatsion usullar orqali ishtirok etishni yo'lga qo'yish taklifi asoslangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** iqtisodchi olimlarning nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlarining ma'lumotlari, shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflardan nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sohasidagi ilmiy qarashlarning tizimlashtirilganligi, nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini kelgusida yanada takomillashtirishga oid nazariy-metodologik va uslubiy apparat shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha olingan xulosa va takliflarni joriy qilish natijasida mazkur sohada faoliyat yurituvchi subyektlar faoliyatida unumli foydalanish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mikromoliya tashkiloti tomonidan mavjud bo'lgan har bir mijoz talabini o'zgarishini tahlili asosida, mijozlarning talabini 0,3 foizga oshirish maqsadida individual guruhlariga bo'lish taklifi «Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankining kredit siyosatini ishlab chiqishda inobatga olingan («Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankining 2025-yil 26-fevraldagi 04-15/124-son ma'lumotnomasi). Natijada,

«Agrobank» ATBda mijozlarni uch guruhga individual tartibda ya'ni birinchisi, rasmiy ish joyiga ega bo'lganlar, ikkinchisi rasmiy ish joyiga ega bo'lmaganlar va uchinchisi nafaqada (pensiya)gi mijozlarga bo'lingan. Mijozlar talabi o'zgarishi 2023-yil 1-yanvar holatiga 186 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa 2024-yil 1-yanvar holatiga 192 ming nafarni tashkil etib 6 ming nafarga ortgan.

bank xizmatlari qamrovini 2 foizga kengaytirish orqali mijozlar sonini 3 foizga ortishi qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi qatlamlari uchun kompleks moliyaviy xizmatlar paketini joriy etish taklifi «Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki biznes rejasini tuzishda joriy etilgan. («Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 19-iyundagi 04/02-10/341-son ma'lumotnomasi). Natijada, bankning mijozlarga xizmat ko'rsatish hajmi kengayib, mijozlari soni ortishiga xizmat qilgan. Xususan, bank resurs bazasini mustahkamlash maqsadida, aholining bo'sh turgan pul mablag'larini bank depozitlariga jalb qilish ko'rsatkichi oshgan.

mikromoliya tashkiloti o'z faoliyatini kengaytirishi va daromadini yiliga 4 foizdan ko'proqqa oshirish maqsadida o'ziga xizmat ko'rsatayotgan tijorat banki bilan shartnoma asosida uning to'lov agenti vazifasini bajarishni yo'lga qo'yish taklifi «Agrobank» ATBning kredit siyosatini ishlab chiqishda foydalanilgan («Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankining 2025-yil 26-fevraldagi 04-15/124-son ma'lumotnomasi, "Ishonchli mablag'" mikromoliya tashkilotining 2024-yil 26-iyundagi №257-son ma'lumotnomasi). Natijada, mikromoliya tashkiloti «Agrobank» ATB bilan shartnoma imzolashi orqali uning to'lov agenti maqomiga erishdi. Shuningdek, ushbu xizmatdan foydalanish natijasida mikromoliya tashkilotining daromadi 50,0 mln. so'mga oshishiga erishildi

banklar tomonidan mikromoliya tashkilotlariga kredit ajratishda, ularning ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlari bo'yicha talab qilib olish huquqini garovga olish orqali kredit foizni 0,3 foizgacha pasaytirish taklifi "Mikrokreditbank" ATBning "Kredit siyosati"ni ishlab chiqishda foydalanilgan va Ichki tartiblariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan («Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 11-iyundagi 05-40/16237-son ma'lumotnomasi). Natijada, bank tomonidan bir nechta mikromoliya tashkilotlariga qulay kreditlash mexanizmi joriy etilib ularning 10 dan ortiq loyihalari moliyalashtirilishiga erishilgan. Bank mijozi bo'lgan mikromoliya tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, jismoniy shaxslar, o'zini-o'zi band qilganlar va boshqa tadbirkorlik subetlariga mikromoliyalash xizmatlari ko'lami kengaygan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotimizda nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning zarurligi va funksional elementlarining nazariy asoslari, respublikamizda nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning uslubiy jihatlari va meʼyoriy-huquqiy jihatlari shu bilan birga nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi yoritib berilgan.

Bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirish moliya bozorisiz tasavvur etib boʻlmaydi. Bunda milliy moliya bozorining asosiy elementini tijorat banklari tashkil qilmoqda, ammo nobank kredit tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish va moliya bozorining muhim elementlaridan biriga aylantirish yuzasidan keng koʻlamli ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025 yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”<sup>5</sup>gi PF-5992-son farmonida «Yuridik va jismoniy shaxslarni umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari ulushini 2020-yilda 0,35 foizdan 2025-yilga kelib 4 foizgacha oshirish»<sup>6</sup> borasida vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda nobank kredit tashkilotlari sirasiga kiruvchi mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan qarashlarni oʻrganishga zaruriyat yaratmoqda. Shuningdek, nobank kredit tashkilotlarining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorliklarini belgilovchi koʻrsatkichlar tizimini aniqlashga, ular orqali nobank kredit tashkilotlarining aholi farovonligini oshirishdagi oʻrnini oʻrganishga hamda mikromoliya tashkilotlarining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligiga taʼsir koʻrsatuvchi ichki va tashqi omillarni jadallashtirish dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda.

Nobank kredit tashkilotlari, odatda, asosan kredit berishga qaratilgan cheklangan miqdordagi moliyaviy xizmatlarni taqdim etadilar. Ular omonat hisobvaraqlari, hisobvaraqlarni tekshirish va hokazo kabi toʻliq bank xizmatlarini taqdim etmaydi. Bankdan tashqari kredit tashkilotlari koʻpincha mijozlarning kredit kuchi va zaif kredit sharoitida mijozlarga kredit berish boʻyicha koʻproq moslashuvchan boʻlishi mumkin. Kredit berishning yuqori xavfi tufayli, bankdan tashqari kreditorlar tijorat banklariga qaraganda yuqori foiz stavkalari bilan ishlaydilar. Ular, shuningdek, kredit ballari past yoki garovi boʻlmagan qarz oluvchilarga yaxshi shartlarni taklif qilishlari mumkin.

<sup>5</sup> <https://lex.uz/docs/-4811025> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son.

<sup>6</sup> <https://lex.uz/docs/-4811025> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son.

Shuningdek, nobank kredit tashkilotlari banklardan tashqari ko'pincha ma'lum iqtisodiy tarmoqlar yoki iste'molchilar guruhlarini bo'yicha ixtisoslashgan bo'lib, bu ularga o'z mijozlarining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish va ko'proq mos xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi. Ushbu tashkilotlar kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va maslahatlar berish orqali mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va tadbirkorlikni rivojlantirishda ham o'z hissasini qo'shishi mumkin. Umuman olganda, nobank kredit tashkilotlari moliyalashtirishni an'anaviy banklardan ololmaydiganlar uchun foydalanish imkoniyatini ta'minlash orqali iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadilar. Ular tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayotgani ish o'rinlari tashkil etish, aholi turmushini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirish va uning faoliyati bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar qilingan, kitoblar yozilgan va ta'riflar berilgan. Marlo Butcher - London Iqtisodiyot maktabining moliyaviy iqtisod professori bo'lib, u "bankdan tashqari kredit tashkilotlarini modellashtirish va ularning moliya tizimidagi ro'lini o'rgangan"<sup>7</sup>. Butcher nobank kredit tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq ma'lum risklar mavjudligini ham tan oladi. Xususan, u ba'zilar yuqori foiz stavkalari va yashirin to'lovlarni taklif qilishi mumkinligini ta'kidlaydi, bu esa qarz oluvchilar uchun moliyaviy muammolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun u iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish uchun bunday tashkilotlarni to'g'ri tartibga solish va nazorat qilishni talab qiladi.

N.Hermes, R.Lensink, va A.Meesters kabi iqtisodchilar ilmiy izlanishlarida mikromoliyaviy tashkilotlarining kambag'allikni qisqartirish yo'lida kreditlar ajratishi bilan uning samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishgan. Tahlilda "435 ta mikromoliya tashkilotining 1997-2007 yillardagi statistik ma'lumotlaridan foydalangan holda stoxastik chegara tahlil (stochastic frontier analysis) modelini qo'llashgan. Tahlil natijalariga ko'ra, 1300 dan ortiq kuzatuvlardan aholining kambag'al qatlamini kreditlash va mikromoliya tashkilotlari samaradorligi o'rtasida teskari proporsionallik mavjudligi aniqlangan"<sup>8</sup>. Bu fikrga mutlaqo qo'shilmaymiz sababi mikromoliy tashkilotlari tomonidan berilayotgan kreditlar hajmi kichik va u arzon qaytarishda mijozga ko'p ham qiyinchilik tug'dirmaydi.

Mahalliy olimlarimizdan N.Urmanovning tadqiqotlarida "Respublikamizda mikromoliyalash xizmatlarini yanada yaxshilash, ularni rivojlantirish bo'yicha fikrlar bildirib, mikromoliyalash sifatini oshirish orqali istiqbolli xizmatlarni yanada takomillashtirish yo'llari orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish to'g'risida"<sup>9</sup> ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqqan.

I.Raxmanov o'zining "O'zbekiston Respublikasida mikromoliyaviy xizmatlarni takomillashtirish yo'llari" mavzusida yozilgan nomzodlik dissertatsiyasida "mikromoliyaviy xizmatlar va ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati hamda nobank kredit

---


<sup>7</sup> Banks and non-bank credit organizations and their operations / Ed. by Marlo Butcher. – M.: UNI-TY. – 2008.

<sup>8</sup> Hermes, N., Lensink, R., & Meesters, A. (2011). Outreach and efficiency of microfinance institutions. *World development*, 39(6), 938-948.

<sup>9</sup> Урманова Н.Р. Перспективы развития микрофинансирования в Узбекистане. УДК-336.77 (575.1). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 2012 г.

tashkilotlarining banklar qatori faol mikromoliyalashdagi ro'li haqida<sup>10</sup> ilmiy fikrlar bildirgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>11</sup>gi PQ-4400-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, nobank kredit tashkilotlari ko'rsatadigan xizmatlar doirasi kengaytirildi va mikromoliyaviy xizmatlar hajmi oshirildi.



**1-rasm. Mamlakatimizda nobank kredit tashkilotlarining faoliyati<sup>12</sup>**

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 16-apreldagi «Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida»<sup>13</sup>gi 765-sonli Qonuniga muvofiq «Yuridik shaxslarning quyidagi xizmatlarni ko'rsatishga doir faoliyati mikromoliyalashtirish faoliyati deb e'tirof etiladi: jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida ellik million

<sup>10</sup> Раҳманов И.Х. Ўзбекистон Республикасида микроолиявий хизматларни такомиллаштириш йўллари. Номзодлик диссертацияси. 2012 йил.

<sup>11</sup> <https://lex.uz/docs/-4435438> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.07.2019 yildagi PQ-4400-son

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 16-apreldagi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi 765-sonli Qonuni asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>13</sup> <https://lex.uz/docs/-5972411> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2022 yildagi O'RQ-765-son.

soʻmdan oshmaydigan miqdorda pul mablagʻlarini - mikroqarz berish; tadbirkorlik subyekti yoki oʻzini oʻzi band qilgan shaxs boʻlgan qarz oluvchiga toʻlovlilik, muddatlilik va qaytarish, shuningdek shartnomada nazarda tutilgan hollarda muayyan maqsadlar uchun foydalanish shartlarida uch yuz million soʻmdan oshmaydigan miqdorda pul mablagʻlarini - mikrokredit berish; jismoniy shaxslarga mikroqarz summasidan oshmaydigan miqdorda kreditlar va kafolatlar berish, islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar koʻrsatish; tadbirkorlik subyektlariga mikrokredit summasidan oshmaydigan miqdorda lizing va kafolatlar berish, faktoring xizmatlari hamda islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar koʻrsatish. Banklar, mikromoliya va toʻlov tashkilotlari, shuningdek mikroqarzlarni berishga oid qism boʻyicha lombardlar mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshirishga haqli»<sup>14</sup>.

Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirish boʻyicha xorijiy tajriba moliyaviy xizmatlar koʻrsatishning qulayligi, shaffofligi va ishonchliligini oshirishga yordam beradigan bir qator chora-tadbirlar va amaliyotlarni ifodalaydi. Mikromoliya tashkilotlarining asosiy oʻchoqlaridan biri bu Bangladesh davlati hisoblanadi. Grameen Bank tajribasini oʻrganish katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu nobank kredit tashkilotlari kichik fermerlar, kichik savdogarlar yoki mikro tadbirkorlar kabi anʼanaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan jamiyat qatlamlariga moliyaviy xizmatlar koʻrsatishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiyaning **“Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning joriy holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Oʻzbekistonda nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning roʻli va ahamiyati, nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishga taʼsir qiluvchi omillar shu bilan birga nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning ekonometrik tahlil qilinib tegishli xulosalar keltirilgan.

Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tahlil qilishda ularni turlarga boʻlgan holda har biri boʻyicha toʻxtalib oʻtishni joiz deb topdik. Mamlakatimiz bank-moliya tizimi barqarorligini taʼminlashda nobank moliya sektorining tutgan oʻrni bugungi kun holatiga maʼlum darajada pastligicha qolayotganligi sohani kelgusida rivojlantirishni talab etadi. Nobank kredit tashkilotlarining mamlakat moliya sektori aktivlarining moliya tizimining jami aktivlardagi ulushi juda ham kichik boʻlib, ushbu sektorda kelgusida yuzaga kelishiga olib keladigan zaifliklarning tizimli xatarlarga aylanish ehtimoli cheklanganligi bilan izohlash mumkin.

1-jadval maʼlumotlari tahlili shuni koʻrsatadiki, mamlakatimizda mavjud boʻlgan nobank kredit tashkilotlari soni yillar kesimida oʻsish tendensiyasini nomoyon qilmoqda.

---

<sup>14</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5972411> Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2022 yildagi OʻRQ-765-son.

## 1-jadval

Nobank kredit tashkilotlari sonining o'sish dinamikasi<sup>15</sup>

№	Tashkilotlar	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024
1	Lizing tashkilotlari	30	30	33	34	38
2	Sug'urta tashkilotlari	36	40	42	41	38
3	FBOKF	1	1	1	1	1
4	Mikromoliya tashkilotlari	56	63	70	85	84
5	Lombardlar	61	64	73	81	84
6	IQMK	-	1	1	1	1
7	To'lov tashkilotlari	17	20	35	47	49
8	To'lov tizimi operatorlari	2	2	3	3	3
9	Fond va valyuta birjalari	2	2	2	2	2
<b>Jami</b>		<b>205</b>	<b>223</b>	<b>260</b>	<b>295</b>	<b>300</b>

Xususan, 2020-yilning 1-yanvar sanasiga 205 tani tashkil qilgan bo'lsa, yillar mobaynida bir maromda o'sib borib, 2024-yilning 1-yanvar sanasiga 95 taga oshib 300 tani tashkil etmoqda. Eng ko'p o'sish mikromoliya tashkilotlari 2020-yil yakunida 56 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning 1-yanvaridagi ko'rsatkichga e'tibor bersak, 28 taga ortib jami 84 tani tashkil etmoqda. Lombard tashkilotlari sonida ham o'sish kuzatilgan. 2020-yilning 1-yanvarida 61 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning 1-yanvarida 23 taga ortib jami 84 tani tashkil etganligini ko'ramiz. Shuningdek, so'ngi yillarda zamonning shiddati bilan rivojlanib borayotgan to'lov tashkilotlari soni ham keskin ortib bormoqda. 2020-yilning 1-yanvar holatiga 17 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning 1-yanvar holatiga 32 taga oshib 49 tani tashkil etmoqda. Lizing tashkilotlarida o'sish biroz sustroq bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. 2020-yilning 1-yanvarida lizing kompaniyalarining soni 30 tani tashkil etgan bo'lsa global pandemiya oqibatida 2021-yilda o'sish kuzatilmadi. 2024-yil 1-yanvarda 8 taga oshib jami 38 tani tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

## 2-jadval


Nobank moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy aktivlari o'sish dinamikasi<sup>16</sup>

Moliyaviy tashkilotlar	01.01.2020		01.01.2021		01.01.2022		01.01.2023		01.01.2024		
	Aktiv mlrd. so'm	Ulush foizda	O'zgarish %								
<b>Jami:</b>	<b>8598</b>	<b>100</b>	<b>10784</b>	<b>100</b>	<b>13881</b>	<b>100</b>	<b>17957</b>	<b>100</b>	<b>29117</b>	<b>100</b>	<b>62,1</b>
Lizing tashkilotlari	3917	45,6	4561	42,3	5115	36,8	5342	29,7	8714	29,9	63,1
Sug'urta tashkilotlari	2682	31,2	3184	29,5	3773	27,2	5028	28,0	7006	24,1	39,3
Mikromoliya tashkilotlari	695	8,1	893	8,3	1255	9,0	1965	10,9	4415	15,2	124,7
IQMK	0	0	408	3,8	1280	9,2	2064	11,5	3468	11,9	68,0
FBOKF	1007	11,7	1289	12,0	1654	11,9	2073	11,5	3018	10,4	45,6
To'lov tashkilotlari	36	0,4	179	1,7	419	3,0	957	5,3	1739	6,0	81,8
Lombardlar	125	1,4	141	1,3	203	1,5	252	1,4	325	1,1	28,6
To'lov tizimi operatorlari	48	0,6	62	0,6	105	0,8	188	1,0	311	1,1	65,8

<sup>15</sup> Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida).

<sup>16</sup> Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida).

2-jadval ma'lumotlari tahliliga nazar solsak, nobank kredit tashkilotlari aktivlari sezilarli darajada o'sayotganligini ko'rish mumkin. Xususan, lizing tashkilotlari aktivlari 2020-yilning 1-yanvar holatiga 3917 mlrd. so'mni tashkil etib jami nobank kredit tashkilotlaridagi ulushi eng ko'p 45,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra bu ko'rsatkich 4797 mlrd. so'mga ortib jami 8714 mlrd. so'mni tashkil etgan. Agar jami nobank tizimidagi ulushiga e'tibor bersak 29,9 foizni tashkil etayotganligini ko'rishimiz mumkin.




**2-rasm. NKT kredit qo'yimalari qoldig'i (mlrd so'm) va umumiy kreditlash hajmidagi ulushi<sup>17</sup>**

2-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2023-yil davomida mikromoliya tashkilotlari va lombard tashkilotlari tomonidan mijozlarga ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi ortib bormoqda. 8,7 trln. so'mni tashkil etib, 2024-yilning 1-yanvar holatiga jami moliyaviy xizmatlar qoldig'i (4,4 trln so'm) 2,2 barobarga, xususan, mikromoliya tashkilotlari kredit qo'yimalari qoldig'i (4,1 trln so'm) 2,3 barobarga va lombardlar kredit qoldig'i (280 mlrd so'm) 30 foizga o'sgan. O'z navbatida, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti tomonidan aholini uy-joylarga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojini qondirish maqsadida tijorat banklariga ajratilgan resurslar qoldig'i 3,1 trln so'm doirasida shakllangan. 2024-yil 1-yanvar holatiga barcha nobank kredit tashkilotlarining jami kredit qo'yimalari qoldig'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 barobarga ko'payib, 7,5 trln so'mni yoki barcha kredit tashkilotlari umumiy kreditlash hajmidagi ulushi 1,6 foizni tashkil etgan.

Nobank kredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzarlar qoldig'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 barobarga ortib, 3,9 trln. so'mga, tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan mikrokreditlar qoldig'i 8 barobarga ko'payib, 466 mlrd. so'mga hamda lizing xizmatlari hajmi esa 3,5 barobarga oshib, 8,3 mlrd. so'mga etgan.

<sup>17</sup> Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida).



### 3-rasm. Nobank kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar qoldig'i, mlrd. so'mda<sup>18</sup>

Mijozlarga xizmat ko'rsatishda albatta ularni ma'lum bir guruhlariga bo'lib ehtiyojlaridan kelib chiqilsa sifat jihatdan yaxshilanib ularning soni ortishiga erishiladi. Yuqori natijalarga erishish mijozlarga nisbatan individual yondashuvni joriy etish orqali deb hisoblash mumkin. Mikromoliya tashkiloti mijozlar talabi va ehtiyojlarini chuqur o'rganib, ularni turli guruhlariga ajratish va har bir guruh uchun alohida xizmatlar va yondashuvlar taklif qilish orqali mijozlarni jalb qilish va ular bilan uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatishga muvaffaq bo'ladi. Mijozlarni uchta guruhga bo'lish (rasmiy ish joyiga ega bo'lganlar, rasmiy ish joyiga ega bo'lmaganlar va pensiyadagi mijozlar) har bir guruh uchun maxsus takliflar va moslashuvchan sharoitlar taqdim etish imkonini beradi.

Shuningdek, mijozlar talablarini qondirish uchun marketing strategiyalarini kuchaytirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va ularga individual e'tibor qaratish ham ushbu natijalarga erishishda muhim omil bo'lgan. Mazkur natijani iqtisodiy model asosida tushuntirib berish uchun "Porterning mijozlar segmentatsiyasi modeli" yoki shunga o'xshash mijozlar segmentatsiyasi va maqsadli xizmat ko'rsatishga asoslangan modeldan foydalanish mumkin bo'ladi. Ushbu model mijozlarni segmentlarga ajratib, har bir segment uchun alohida xizmat va marketing yondashuvlarini taqdim etish orqali mijozlar sonining o'sishi va ularning xizmatlarga bo'lgan qiziqishini oshirish imkonini beradi.

Mijozlar Segmentatsiyasi: Mikromoliya tashkiloti mijozlarni uchta asosiy guruhga ajratdi:

1-rasmiy ish joyiga ega bo'lganlar: Bu guruh moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi mumkinligi sababli, ularga kredit yoki investitsiya xizmatlari uchun yaxshiroq sharoitlar taklif qilinadi.

2-rasmiy ish joyiga ega bo'lmaganlar: Ushbu guruh uchun yanada moslashuvchan sharoitlar, jumladan kichik miqdorda kreditlar va qulay to'lov rejasi taklif qilinadi.

3-pensiya (nafaqada)gi mijozlar: Ushbu mijozlar uchun pensiya daromadlariga asoslangan xizmatlar taklif qilinadi, bu ularga o'z moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyat yaratdi.

Shuningdek, mijozlarga moslashuvchan xizmat ko'rsatish mexanizmi. Har bir guruhning talabi va ehtiyojlariga asoslangan holda xizmat ko'rsatish taklif qilinadi.

<sup>18</sup> Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida).

Bu yondashuv mijozlar bilan individual munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi va ularning mikromoliya tashkilotiga bo'lgan sadoqatini oshiradi.

Mijoz bilan ishlashning yana bir turi o'zaro aloqalarni mustahkamlash yo'llari. Mijozlarni segmentlash orqali tashkilot har bir guruh bilan samarali va ehtiyojlariga mos aloqa o'rnatishga muvaffaq bo'ladi. Bu mijozlarning mikromoliya tashkiloti xizmatidan qoniqishini oshiradi va ularni uzoq muddatli hamkorlikka jalb qiladi. Ushbu vaziyatda keltirilgan ma'lumotlarni sonlar bilan bog'lab model orqali asoslash uchun keling, raqamlar bilan mijozlar sonidagi o'zgarishlarni tahlil qilamiz va mikromoliya tashkiloti qaysi strategiyalar orqali ushbu o'sishga erishganini izohlaymiz. Misol uchun, 2023-yil 1-yanvar holatiga 609 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil 1-yanvar holatiga 960 nafarni tashkil etib 351 nafarga ortgan yoki 57,6 foiz o'sishni anglatadi.

Yuqoridagi natijalarni ishlab chiqilgan model asosida tahlil qilsak:

1. Mijozlar segmentatsiyasi va moslashuvchanligi:

a) Rasmiy ish joyiga ega bo'lgan mijozlar ushbu guruh dastlabki 609 mijozning taxminan 40% yoki 244 nafarini tashkil etgan. Ushbu mijozlar uchun mikromoliya tashkiloti arzonroq foiz stavkalari bilan kredit va uzoq muddatli investitsiya xizmatlarini taklif qilgan. Bu segmentga nisbatan alohida e'tibor qaratish orqali ushbu guruhga 141 nafar yangi mijoz jalb qilingan.

b) Rasmiy ish joyiga ega bo'lmaganlar ushbu segment taxminan 30 foz yoki 183 mijozni tashkil etgan. Moslashuvchan kredit shartlari va kichik miqdorda kreditlar bilan ushbu guruh mijozlar bazasi 105 nafar yangi mijoz bilan kengaytirilgan.

c) pensiyadagi mijozlar bu guruh 30 yoki 182 mijozdan iborat bo'lgan. Ular uchun pensiya daromadiga mos kredit va boshqa xizmatlar taklif qilinib, ushbu guruhga 102 nafar yangi mijoz qo'shilgan.

2. O'zaro aloqalarni mustahkamlash:

Mijozlarning ehtiyojlariga mos takliflar va xizmatlar orqali mikromoliya tashkiloti mijozlar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantirdi. Masalan, pensiyadagi mijozlar uchun o'zlariga mos xizmatlar taklif etilishi, ularga xizmat ko'rsatish sifatining oshirilishi natijasida mijozlar bazasi oshishiga katta hissa qo'shilgan. Ular soni yil davomida 609 nafardan 960 nafarga oshgan. Mazkur raqamlar asosida mikromoliya tashkiloti mijozlar talablari va ehtiyojlarini segmentatsiya qilish orqali ularga nisbatan individual xizmat ko'rsatish strategiyasini muvaffaqiyatli joriy etganini ko'rish mumkin. Segmentatsiya natijasida har bir mijoz guruhiga mos xizmatlar taklif etilishi va ularning talablariga nisbatan moslashuvchan yondashuv o'sishning asosiy omili bo'lgan. Bunday yondashuv xizmatlar doirasini kengaytirishga, yangi mijozlarni jalb qilishga va mavjud mijozlarning sadoqatini oshirishga yordam bergan, bu esa umumiy mijozlar sonining sezilarli darajada o'sishiga olib kelgan.

O'rnatilgan qonunchilik talablariga ko'ra NKTning ustav fondi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida shakllantiriladi va faqat nobank kredit tashkilotining muassislari tomonidan kiritilgan pul mablag'laridan tashkil topishi belgilab berilgan.

Bugungi kunda NKTlarining ustav fondining eng kam miqdori quyidagicha qilib belgilangan:

ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti uchun - yigirma besh milliard so‘m;  
mikromoliya tashkiloti uchun - ikki milliard so‘m;  
lombard uchun - besh yuz million so‘m etib belgilangan.

Tijorat banklari uchun bugungi kunda ustav kapitalining miqdori bir muncha oshirilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ayni kunlardagi bank ustav kapitalining eng kam miqdori quyidagicha:

“2023-yil 1-sentabrga qadar yuz milliard so‘m;

2023-yil 1-sentabrdan e‘tiboran ikki yuz milliard so‘m;

2024-yil 1-apreldan e‘tiboran uch yuz ellik milliard so‘m;

2025-yil 1-yanvardan e‘tiboran besh yuz milliard so‘mni tashkil etishi kerak”<sup>19</sup>.

Ushbu keltirilgan pul mablag‘larining oshirilishi tijorat banklarining ayrim turlariga katta ta‘sir etib o‘z faoliyatini tugatishga yoki bo‘lmasa boshqa bir bank bilan o‘z faoliyatini birlashtirishga olib keldi. Ushbu holatlardan kelib chiqib tijorat banklariga raqobatdosh NKTlari soni ortib bormoqda. Yuqorida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni inobatga olgan holda, yurtimizda faoliyatiga ruxsat berilishi ko‘zda tutilayotgan yangi bank shakli - mikromoliya banklaridir. Ushbu yangi subyektlarga kredit va omonatlar miqdorlari bo‘yicha va boshqa ayrim cheklovlar o‘rnatiladi. Xususan mikromoliya banki bir fuqarodan 200 mln. so‘mdan oshmagan miqdorda omonat qabul qilishi mumkin bo‘ladi. Shuningdek, mikromoliya banki bir qarzdor yoki o‘zaro qarzdorlar guruhiga ham ko‘pi bilan 5 mlrd. so‘m kredit bera oladi bunday cheklovlarning o‘rnatilishi mikromoliya banklarining uzoq muddat faoliyat yuritishlari va o‘z mijozlari oldidagi majburiyatlarni o‘z vaqtida bajara olish qobiliyatini saqlay olishi bilan izohlanadi.



#### 4-rasm. Mikromoliya tashkilotining Mikromoliya bankka aylanish sxemasi<sup>20</sup>

Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish, aholining keng qatlamlari tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, hududlarda mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, mikromoliya tashkilotlari uchun

<sup>19</sup> <https://lex.uz/docs/-2699536> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori, 06.07.2015 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 2693.

<sup>20</sup> Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma‘lumotlari asosida).

qo‘shimcha moliyaviy resurslar, shu jumladan depozit jalb qilish imkoniyatini yaratish, mikromoliya tashkilotlari va tijorat banklari o‘rtasidagi «zanjir» effektini hosil qilib uni mustahkamlash maqsad qilib olingan.

Shuningdek, ahamiyatli jihati shundaki, mikromoliya banklari kredit portfelining kamida 70 foizi tadbirkorlik faoliyatiga ajratilishi lozim. Bundan maqsad ko‘proq aholini tadbirkor qilish hamda kichik va mikro biznesni moliyalashtirishni qo‘llab quvvatlash ekanini qayd etildi. Mikromoliya banki chet el banklarida hisobvaraqlar va boshqa hisobvaraqlar ochish hamda mijozlarning tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatish taqiqlanadi. Bu yo‘l bilan MB mamlakatda valyutaviy nazoratni olib borishi imkoniyatini o‘zida saqlab qoladi.



**5-rasm. Kredit tashkilotlarining transformatsiyasi<sup>21</sup>**

Mikromoliya banklari ustav kapitalining eng kam miqdori 50 mlrd. so‘m, eng yuqori miqdori esa 500 mlrd. so‘m etib belgilangan. Ushbu tajriba ustav kapitalini belgilangan talabga etkaza olmagan tijorat banklari mikromoliya banklariga aylanishlari mumkinligi va belgilangan tartibda mablag‘larni eng kam ustav kapitali uchun etarli darajada shakllantirilgandan so‘ng yana bank sifatida faoliyatini davom ettirishi mumkin bo‘lishi ham bank tizimi rivoji uchun katta imkoniyatdir. 2024-yil 1-fevral holatiga jami 10 ta tijorat banki ustav kapitalini 350 mlrd. so‘mga etkaza olmagan, 17 ta bankning ustav kapitali 500 mlrd. so‘mdan kam bo‘lib turibdi. Bunda holatning mavjudligi mikromoliya banklarini ochish ayni muddao ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”<sup>22</sup>gi qonuniga asosan “to‘lov agenti bu - bank yoki to‘lov tashkiloti bilan to‘lov xizmatlari ko‘rsatish uchun agentlik shartnomasini tuzgan, bank hisoblanmaydigan yuridik shaxs”<sup>23</sup>dir deb ta’rif keltirilgan. Unga ko‘ra banklar

<sup>21</sup> Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma’lumotlari asosida).

<sup>22</sup> <https://lex.uz/docs/-4575786> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.11.2019 yildagi O‘RQ-578-son

<sup>23</sup> <https://lex.uz/docs/-4575786> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.11.2019 yildagi O‘RQ-578-son

nobank kredit tashkilotlari bilan bevosita ayrim xizmat turlarini agenti sifatida foydalanishi mumkin. “To‘lov tizimi to‘lovlarni to‘lov tizimining operatori, to‘lov tizimi ishtirokchilari va (yoki) to‘lov tashkilotlarining to‘lov tizimi operatori tomonidan belgilangan to‘lov tizimining tartib-taomillarini, infratuzilmasini va qoidalarini qo‘llash vositasida hamkorlik qilish yo‘li bilan amalga oshirishni ta‘minlaydigan munosabatlar majmuyidir”<sup>24</sup>.

To‘lov xizmatlarini etkazib beruvchilar quyidagilardan iborat: - Markaziy bank; - banklar; - to‘lov tashkilotlari; - to‘lov agentlari; - to‘lov subagentlari.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, banklar o‘zlarining ayrim faoliyatlarini belgilangan tartib-qoidalardan chiqmagan holda mikromoliya tashkilotlariga o‘tkazishi mumkin. Mikromoliya tashkiloti o‘z faoliyatini kengaytirishi va daromadini oshirish maqsadida o‘ziga xizmat ko‘rsatayotgan tijorat banki bilan shartnoma asosida uning to‘lov agenti vazifasini bajarishni yo‘lga qo‘yishi mumkinligini tadqiqotimiz davomida isbotlaymiz. Ushbu vaziyatni tushuntirish uchun mijozlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va moliyaviy samaradorlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy modellarni qo‘llash orqali natijalarni ifodalaymiz.

Mikromoliya tashkilotining bank bilan shartnoma imzolashi orqali to‘lov agenti maqomiga erishishi hamkorlik modeliga asoslanadi. Ushbu modelda mikromoliya tashkiloti o‘z xizmatlarini kengaytirish va bank infratuzilmasidan foydalanish orqali qo‘shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agent sifatida xizmat ko‘rsatish moliyaviy muomalalarning samaradorligini oshiradi va mikromoliya tashkilotiga qo‘shimcha komissiya to‘lovlarini olish imkonini beradi. Bank bilan shartnoma asosida mikromoliya tashkiloti to‘lov agenti vazifasini bajarishga kirishadi. Bu esa bank xizmatlaridan foydalanuvchilarni jalb qilish va moliyaviy muomalalarni amalga oshirish imkoniyatini kengaytirdi. Ushbu hamkorlik natijasida mikromoliya tashkiloti qo‘shimcha xizmat to‘lovlarini qabul qilish va mijozlarga qulayliklar taqdim etishga muvaffaq bo‘ladi. Agentlik faoliyati natijasida 2024-yilda mikromoliya tashkilotining umumiy daromadi 50,0 mln. so‘mga oshgan. Ushbu oshish, asosan, agentlik faoliyatidan kelib chiqadigan komissiya to‘lovlari va mijozlarga qo‘shimcha xizmatlarni taqdim etish evaziga bo‘lgan.

Tadqiqotimiz davomida modellashtirishni amalga oshirdik. Unda qo‘shimcha daromad modelini ishlab chiqdik. Mikromoliya tashkilotining bank bilan agent sifatida hamkorlik qilishidan kutilgan qo‘shimcha daromadni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$D_{\text{umumiy}} = D_{\text{avvalgi}} + (N_{\text{yangi}} \times T_{\text{komissiya}}) \quad (1)$$

bu yerda:

$D_{\text{umumiy}}$  - umumiy daromad,

$D_{\text{avvalgi}}$  - mikromoliya tashkilotining agentlik faoliyati boshlangunga qadar bo‘lgan daromadi.

$N_{\text{yangi}}$  - qo‘shimcha mijozlar soni yoki yangi muomalalar soni.

$T_{\text{komissiya}}$  - bir tranzaktsiyadan olingan komissiya miqdori.

---

<sup>24</sup> <https://lex.uz/docs/-4575786> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.11.2019 yildagi O‘RQ-578-son

Mikromoliya tashkiloti tijorat banki bilan to'lov agenti sifatida ishlash uchun shartnoma asosida barcha texnik, huquqiy va xavfsizlik talablari asosida o'z xizmatlarini tashkil qilishi lozim. Bu jarayon mijozlarga yanada qulayroq moliyaviy xizmatlar taqdim etish, faoliyatni kengaytirish va daromadni oshirishga yordam beradi.

